

**MUSIQA VA INKLYUZIV TA'LIM: ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ
BOLALAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

*„San'atshunoslik" kafedrasi v.b dotsenti **Ruziyeva Orzigul***

*Musiqiy ta'lim yo'nalishi talabasi **Maxmudova Nilufar***

Annotatsiya: *Maqolada musiqa fanining inklyuziv ta'lim tizimidagi o'rni va alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash tajribasi tahlil qilinadi. Musiqaning psixologik-terapevtik ta'siri, bolalarda ijtimoiy moslashuvni ta'minlashdagi roli hamda amaliy mashg'ulotlarda qo'llangan metodlarning samaradorligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari musiqiy ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalar shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim vosita ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *musiqa, inklyuziv ta'lim, alohida yordamga muhtoj bolalar, metodika, tajriba*

Аннотация: *В статье анализируется роль музыкального образования в системе инклюзивного обучения и опыт работы с детьми, нуждающимися в особой поддержке. Освещается психолого-терапевтическое воздействие музыки, её роль в обеспечении социальной адаптации детей, а также эффективность методов, применяемых на практических занятиях. Результаты исследования показывают, что музыкальное образование является важным инструментом для раскрытия личностного потенциала детей, нуждающихся в особой поддержке.*

Ключевые слова: *музыка, инклюзивное образование, дети, нуждающиеся в особой поддержке, методика, опыт*

Annotation: *The article analyzes the role of music education within the inclusive education system and the experience of working with children requiring special support. It highlights the psychological and therapeutic effects of music, its role in facilitating children's social adaptation, and the effectiveness of methods applied in practical lessons. The research results demonstrate that music education*

is an important tool for unlocking the personal potential of children with special needs.

Keywords: *music, inclusive education, children with special needs, methodology, experience*

Kirish

O'zbekistonning yangi taraqqiyoti bosqichida mamlakatimizda bo'layotgan o'zgarishlar va yangilanishlar mustahkam ma'naviy-axloqiy qadriyatlar negizida amalga oshirilayapdi. Bu esa yoshlarning yuksak fazilatlarni shakllantirishda, shu bilan birga, ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishda ta'limning o'rni va roli muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.(1)

Inklyuziv ta'lim – davlatimiz tomonidan yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan asosiy masalalarning kun tartibidan o'rin olganligi bilan va bu jarayonning o'qituvchi-pedagoglar oldiga qo'yilgan vazifalardan biri ekanligi, ta'lim yo'nalishini joylarda amalga oshirish o'zining yangiligi bilan namoyon bo'lib kelmoqda. Olib borilayotgan tadqiqot bugungi kun uchun yangi hamda o'z natijalarini ochish borasida o'qituvchi-pedagoglar oldida turgan muammolar echimini isbotlashga qaratilganligi bilan diqqatlidir.

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi — alohida yordamga muhtoj bolalarning ham teng huquqli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, ularni jamiyat hayotiga faol integratsiya qilishdan iborat. Shu jarayonda san'at, xususan musiqa fani, bolaning ijtimoiylashuvi, ruhiy dunyosini boyitishi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Musiqa darslari orqali alohida yordamga muhtoj bolalarda o'ziga ishonch hissini shakllantirish, muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, ijobiy emotsional muhit yaratish mumkin. Ayniqsa, qo'shiq aytish, cholg'u asboblarda oddiy kuylarni ijro etish, ritmik mashqlar orqali ular nafaqat musiqiy bilim oladi, balki psixologik va pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlanadi.

Shu bois musiqa va inklyuziv ta'lim uyg'unligi nafaqat ta'lim jarayonini

yanada samarali qilish, balki alohida yordamga muhtoj bolalarning hayot sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Mazkur maqolada musiqaning inklyuziv ta'limdagi o'rni, amaliy tajribalar va samarali metodlar tahlil qilinadi

Asosiy qism

Bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilishi kerak. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak. O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'i nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan

.O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator qarorlar va normativ hujjatlar qabul qilingan. Bu qarorlar imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish huquqlarini ta'minlash, ularni umumta'lim maktablariga integratsiyalash va maxsus ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan

1. “2030-yilgacha bo'lgan Inklyuziv ta'lim dasturi”.Ushbu dastur Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar ko'magida ishlab chiqilgan.(2)

2030-yilgacha inklyuziv ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Dastur imkoniyati cheklangan bolalarga to'liq inklyuziv ta'lim olish uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratishni maqsad qiladi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-maydagi PQ-4312-son qarori Bu qarorda “Maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim olish huquqlarini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida” ko'rsatmalar berilgan. Qarorda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish, imkoniyati cheklangan bolalarga umumiy ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish va maxsus xizmatlarni ko'paytirish haqida so'z boradi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi PQ-5198-son qarori “Ta'lim sifatini oshirish va imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish” haqidagi ushbu qarorda inklyuziv ta'lim jarayonini qo'llabquvvatlash uchun maxsus dasturlar va rejalarga urg'u berilgan. Qarorda maxsus ehtiyojli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun pedagog kadrlarni

tayyorlash, ularga maxsus metodik yordam ko'rsatish, psixologik xizmatlarni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan.(3)

Inklyuziv ta'lim jarayonida musiqa fani alohida yordamga muhtoj bolalarning individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faoliyatga jalb etish hamda ularda ijobiy motivatsiya uyg'otishning samarali vositasidir.

Qo'shiq kuylash orqali bolalar nutqiy faollikka erishadi, talaffuz va intonatsiya ustida ishlash imkoniga ega bo'ladi. Ritmik mashqlar ularning motorika rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, harakatlarni muvofiqlashtirish va jismoniy faollikni oshirishga yordam beradi. Cholg'u asboblari ijro qilish esa bola diqqatini jamlash, koordinatsiya va musiqiy eshituv qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, jamoaviy musiqiy faoliyat ularda muloqot ko'nikmalarini, hamkorlikda ishlashni, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rgatadi.

Musiqa mashg'ulotlari jarayonida o'qituvchi differensial va individual yondashuvni qo'llashi mumkin. Masalan, imkoniyati cheklangan bola oddiy ritmik asboblarda ijro etish orqali jarayonga qo'shilishi, asta-sekinlik bilan murakkabroq mashqlarni bajarishga o'rgatilishi mumkin. Bunday yondashuv bolaning qiziqishi va ishtirokini oshiradi, shu bilan birga o'ziga ishonchni mustahkamlaydi.

Maktabda nogironligi sababli deyarli gapirmaydigan qizaloq bor edi. U darslarda har doim jim o'tirar, boshqalar bilan muloqot qilmasdi. Ammo bir kuni bolalar bilan qo'shiq ayta boshlaganimizda, uning lablari sekin qimirlay boshladi bu nozik o'zgarishni payqab, unga alohida ohang berdim. Oradan ko'p o'tmay, qizaloq ham qo'shiq aytishga jur'at topdi. Ovoz kichkina bo'lsa-da, unda yillar davomida ichiga yutilgan hislar jo'sh urib chiqardi. Shu oddiy jarayon orqali u o'zining birinchi qadamini qo'ydi – jamoadan ajralgan bola endi musiqaning qo'shig'iga qo'shildi.

Boshqa bir darsda esa bolalar baraban va qo'l chalish orqali ritm mashqlarini bajarayotgan edik. Dastlab har kim o'zicha chalar, sinfda tartibsizlik sezilardi. Lekin vaqt o'tib ular bir ritmni tutib oldilar. Qo'llarning uyg'un urilishi bolalarni o'zaro birlashtirdi. Shu tariqa ular musiqada ham, hayotda ham hamjihatlikka intilishni o'rgana boshladilar. Bu oddiy ritm ularga bir-birini tinglash, hurmat qilish va jamoa

bo'lib harakat qilishni singdirdi.

Ba'zan musiqa bolaga tabassum qaytaradi. Har doim jiddiy, hatto biroz befarq ko'ringan bir o'quvchi quvnoq qo'shiq aytish jarayonida kutilmaganda kulib yubordi. Bu kulgi sinfdagilarning barchasiga yuqqan edi. Shu ondan boshlab u darslarga yanada faol qatnashdi, sinfdoshlariga yaqinlashdi. Ota onasining aytishicha, musiqa darslaridan oldin u deyarli hech qachon jilmaymagan. Endi esa u qo'shiq orqali nafaqat tabassumni, balki hayotga bo'lgan ishonchini ham topgan edi.

Bu misollar shuni ko'rsatdiki, musiqa – ruhiy jarohatlarni yengib o'tishda eng ishonchli vosita. U bolaning diqqatini jamlashiga, nutqini rivojlantirishiga, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishiga yordam beradi. Musiqa yolg'izlikni yo'qotadi, bolani jamiyatga olib kiradi, milliy kuylar esa uning qalbida madaniyatiga bo'lgan mehrni uyg'otadi.

Inklyuziv ta'limda musiqaning roli beqiyos. U bolalarga o'zini erkin ifoda etish imkonini beradi, jamoadagi o'rnini his qildirish orqali ruhiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlaydi. Eng muhimi, musiqa hech qanday chegarani tan olmaydi: eshitish qobiliyati zaif bo'lsa ham yurak bilan seziladi, til ojiz bo'lsa ham ko'z nuri bilan ifodalanadi.

Natijalar va muhokama

O'tkazgan kuzatuvlar va tajriba mashg'ulotlarmi shuni ko'rsatadiki, musiqa alohida yordamga muhtoj bolalarning shaxsiy rivojlanishida ijobiy natijalar beradi. Avvalo, bolalarda emotsional barqarorlik kuchayadi, ular o'z his-tuyg'ularini erkin ifoda etishga intiladilar. Musiqiy faoliyat jarayonida bola o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, tengdoshlar bilan hamkorlik qilish ko'nikmasini hosil qiladi.

Tajriba davomida quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

- Nutqiy rivojlanishda sezilarli siljish (qo'shiq aytish orqali so'z boyligi oshishi, talaffuz yaxshilanishi);
- Motorika va ritmik sezgining rivojlanishi (harakatlarni muvofiqlashtirish, jismoniy faollikning oshishi);

- Ijtimoiy moslashuv va muloqot ko'nikmalarining yaxshilanishi (jamoaviy qo'shiq va ijro orqali hamkorlikka o'rganish);
- Psixologik holatning ijobiylashuvi (stressning kamayishi, kayfiyatning ko'tarilish).
- Shuningdek, musiqiy mashg'ulotlarda qo'llangan differensial va individual yondashuvlar samaradorlikni yanada oshirdi. Bu orqali har bir bola o'z imkoniyati darajasida jarayonga qo'shildi, natijada o'zini jamiyatning faol a'zosi sifatida his qila boshladi.

Muhokama jarayonida ta'kidlash lozimki, musiqaning inklyuziv ta'limdagi o'rni faqat ta'limiy emas, balki ijtimoiy va terapevtik ahamiyatga ham ega. Shu bois, kelgusida musiqa ta'limini maxsus metodik qo'llanmalar bilan boyitish, o'qituvchilarni inklyuziv yondashuv bo'yicha tayyorlash va tajriba almashish tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Xulosa

Musiqa va inklyuziv ta'lim uyg'unligi alohida yordamga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlashda samarali pedagogik vosita ekanligi tajribalar orqali tasdiqlandi. Musiqiy mashg'ulotlar ularning ruhiy va emotsional barqarorligini mustahkamlab, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, ijtimoiylashuv jarayonini yengillashtiradi. Qo'shiq aytish, ritmik mashqlar va cholg'u asboblari bilan ijro qilish orqali bolalarda nutq, motorika, diqqat va muloqot ko'nikmalari yaxshilanadi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, musiqiy ta'lim jarayonida individual va differensial yondashuvlarni qo'llash bolalarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Shu bilan birga, o'qituvchining mehribonlik, sabr-toqat va kasbiy mahorati ham yuqori samara beruvchi omillardan biridir.

Shunday qilib, musiqa fani nafaqat estetik didni shakllantirish, balki alohida yordamga muhtoj bolalarning jamiyatda munosib o'rin topishi, ularning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyatini ham yaratadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda metodik qo'llanmalar ishlab chiqish, o'qituvchilar malakasini oshirish va tajribalarni keng targ'ib qilish inklyuziv ta'lim samaradorligini yanada kuchaytirishi

mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYHATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. — Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi. — Toshkent, 2021.
3. Abdullayeva, N. Musiqa ta'limi nazariyasi va metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Xolmatov, R. Inklyuziv ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. Hallam, S. The Power of Music: Its impact on the intellectual, social and personal development of children and young people. — London: University of London, 2015.
6. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Policy and Practice. — Paris, 2020.
7. Sayfutdinova, M. (2017). "O'zbekistonda inklyuziv ta'limning rivojlanishi va global tajriba." Xalqaro ta'lim jurnali, 9(2), 45-50.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi(2013)."O'zbekistonda maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun ta'limni tashkil etish to'g'risidagi qaror." Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
9. Tursunov, D. (2020). "Jamiyatda inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash: O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy dasturlar." Jamiyat va ta'lim, 14(4), 75-80.
10. Xo'jaeva, D. (2021). "Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistondagi amaliy tajribalar." Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, 7(1), 102-109.
11. Saidahmedov N.S., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. –T.: XTV RTM, 1999. -55 b.
12. Saydulloyevich, O. Y. (2023). SAMPLES OF THE WISDOM OF IMAM ABU HAMID GHAZALI QUOTED IN THE GREAT WORKS. World Bulletin of Social Sciences, 25, 18-21.

13. Saidulloyevich, Y. O. (2022). Comments and explanations on the works of the great mutaffakkir imam ghazali. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 241-244.
14. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, K. M. (2021). Developing Healthy Thinking In Students As A Pedagogical Problem. European Journal Of Life Safety And Stability (2660-9630), 12, 424-429.
15. Xolova, M. S., & Ochilov, Y. S. (2021). Pedagogical Conditions For The Development Of Healthy Thinking In Students. Academic research in educational sciences, 2(6), 54-57.
16. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, X. M. (2022). Scientific activity and spiritual heritage of Imam ghazali.
17. Saydulloyevich, O. Y. (2022). The educational and moral significance of the spiritual heritage of Imam ghazali.